

HIMOYA GAZLARI MUHITIDA PAYVANDLASHDA MEHNAT MUHOFAZASI

Qobulova Nilufar Jalilovna.

Andijon mashinasozlik instituti t.f.n dotsent

Yulchiyev Davronbek Rustamjon o'gli.

Andijon mashinasozlik instituti magistranti

Mirzakamolov Jaxongir Xosiljon o'g'li.

Andijon mashinasozlik instituti magistranti

Ismoilov Olimxon Isroiljonovich.

Andijon mashinasozlik instituti magistranti

Hozirgi kunda barcha ishlab chiqarish zonalarini payvandlash ishlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu jumladan himoya gazlari muhitida payvandlash turi ham keng miqyosda ishlab chiqarish korxonalarida foydalanib kelinmoqda.

Himoya gazlari muhitida payvandlashning afzalliklari va kamchiliklari quyidagilar:

1.Afzalliklari:

- flyus yoki qoplamlar ishlatishga, binobarin, choklarni shlakdan tozalashga hojat yo'q;
- yuqori ish unumi va manba issiqligining yuqori darajada kontsentratsiyalanishi strukturaviy o'zgarishlar zonasini ancha qisqartirishga imkon beradi;
- chok metali havo kislороди va azoti bilan juda kam ta'sirlashadi;
- payvandlash jarayonini kuzatib turish qulay;
- jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish imkonibor.

2.Kamchiliklari:

- atmosferaga zaharli gazlarning chiqishi;
- payvandlash uskunasini bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish ko'p vaqt talab qiladi;
- Ish rejimi to'g'ri tanlanmasa, payvandlanayotgan detalda nuqsonlar paydo bo'lishi.

Har qanday ishlab chiqarish jarayonida texnika havfsizligiga rivoja qilish, mehnat muhofazasini tashkil etish, sifatli mahsulot chiqishini omillaridan biri hisoblanadi.

Himoya gazlari muhitida payvandlashda maxsus jihozlangan binolarda amalga oshirishda mehnat havfsizligi qoidalarini to'g'ri tashkil etish kerak:

1. Ishlab chiqarish korxonaları atrofi devorlar bilan o'rالgan maydoni bir necha gektarni tashkil etadigan va aholi yashash punktlariga yaqin joylarga quriladi.

Ishlab chiqarish zavodlari elektr energiyasidan siqilgan havo va turli gazlardan, turli tarkib va xossalarga ega bo'lган buyumlar va payvandlash materiallaridan, mexanik va elektr energiyasi yordamida harakatga keltiruvchi qurilmalaridan foydalaniлади;

2. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda atrof-muhitga turli xil zararli gaz va erigan metall sochramalari yuzaga keladi, shuning uchun ishlab chiqarish korxonalarida zararli gazlarni tutib qoluvchi filtrlardan foydalaniлади;

Turli portlash xususiyatiga ega bo'lган gazlar (argon, kislarod va h.k) alohida ajratilgan maxsus joylarda, payvandlash ishlariga yaqin bo'lмаган uzoqlikda joylashtirilishi kerak;

3. Ishlab chiqarish korxonalarida sanitар gigiyenik holatga va atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor beriladi. Shu sohaga javobgar alohida hodim doimiy nazoratga olib turadi. U inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lган ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yish va yangisini joriy qildirmaslik huquqiga ega;

4. Ishlab chiqarish korxonalarida payvandchi zararli nur va gazlardan, metall sochramalardan himoya qiluvchi maxsus kiyim kiyib ishlaydi;

5. Ishlab chiqarish korxonasida mehnat muhofazasi masalalari bo'yicha komissiya tuzilgan bo'lib, u o'z ish rejasiga asosan doimiy ravishda ishlab keladi. Ayniqsa ishchilar salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni o'rganib, ularni bartaraф qilish ishlarini amalga oshiradi.

Himoya gazlari muhitida payvandlashda mehnat muhofazasi bo'yicha tarmoqlararo qoidalarga qat'iy amal qilish zarur, yani bosim ostida ishlovchi idishlar bilan havfsiz ishslash qoidalari va yong'in havfsizligi qoidalari:

1. Himoya gazlari muxitida payvandlash xonasida 2500-3000m³ havoni almashtiriladigan umumiyl ventilyatsiya bo'lishi kerak;
2. Ishchilarning doimiy ish joyi zararli gaz va kukun changini so'rib olishga mo'ljallangan 1 m³ maydon uchun 1700-2500 m³ /soat quvvatiga ega bo'lgan mahalliy ventilyatsiya bilan jihozlangan bo'lishi kerak: - ish joyining minimal maydoni 4 m² dan kam bo'lmasligi;
 - ish joyi joylashgan bino yong'in havfsizligi bo'yicha СИП 2.09.02-85 talablariga javob berishi;
 - ish joyining asosi yonmaydigan materialdan tayyorlangan bo'lishi kerak;
3. Ko'zni himoya qilish uchun maxsus himoyalovchi ko'z oynak va shovqindan himoyalash uchun quloqchin bo'lish kerak;
4. Terini kuydirib olishdan himoyalash uchun esa maxsus kostyum, botinka va qo'lqop bo'lishi kerak;
5. Gaz alangasida payvandlash uchun 18 yoshdan kichik bo'lman, meditsina ko'riganidan o'tgan, maxsus bilimga ega, havfsizlik talablari bo'yicha bilimi sinovidan o'tgan va ushbu qurilmada ishslash bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lgan kishilarga ruxsat beriladi;
6. Himoya gazlari muhitida payvandlash jarayonida quyidagilar taqiqilanadi:
 - himoya vositalarisiz ishslash;
 - shlanklarning germetikligi buzilgan va mexanik jarohatlangan holda ishslash;
 - gorelkada ular joylarida germetiklik buzilganda;
 - yuqorida keltirilgan talablarga javob bermaydigan va yirtiq kiyimlardan foydalanish:

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati :

1. "Atmosfera havosini muhofaza qilish va foydalanish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, 1997 yil;
2. G'oipov H.E. Hayot faoliyati xavfsizligi, Toshkent, "Yangi asr avlod" 2000;
3. Qudratov A. va boshqalar. Hayotiy faoliyat havfsizligi. Toshkent, "Aloqachi", 2005;
4. Abralov M.A. Eritib payvandlash texnologiyasi va jihozlari. T. "Voris" nashriyoti 2007, 416 b.